“Kimyo Girls” respublika olimpiadasining ikkinchi bosqich bellashuvlari bo‘lib o‘tdi.

// 13.03.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-girls-respublika-olimpiadasining-ikkinchi-bosqich-bell



Ma’lumki, D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida talaba qizlar uchun “Kimyo Girls” respublika olimpiadasi bo‘lib o‘tmoqda. Kuni kecha olimpiadaning ikkinchi bosqich bellashuvlari bo‘lib o‘tdi. “O‘zkimyosanoat” AJ mas’ullari ham unda ishtirok etib, talabalarga ulkan zafarlar va muvaffaqiyatlar izhor etdi.



Ilk bosqich - test sinovlarida muvaffaqiyatli o‘tgan qizlar laboratoriya tajribalari bo‘yicha bellashdilar. Eng ko‘p ball yig‘gan 15 nafar qiz uchinchi bosqichga yo‘llanma oladi va o‘z loyihasini himoya qiladi.



